



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 255 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 88 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 167 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 817,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,1 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 133,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 136,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 8 898,5 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 785,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 983 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 37 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 946 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 9 148,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,9 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 6 735,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 73,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Chortoq (5,3 m), Namangan (215,1 %) va Norin tumanlari (154,5 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 919 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 913 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 9 718,7 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 87,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.